



**XALQ DEPUTATLARI O'ZBEKISTON TUMANI KENGASHI**  
**QARORI**

2023 - yil 5 - oktabr

VI-73-106-11-161-K/23

O'zbekiston tuman hokimligi

**Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va  
“Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag'lar  
ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ–5072-sonli va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021 yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qaroriga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag'lar ajratish maqsadida xalq deputatlari O'zbekiston tuman Kengashi

**Q A R O R   Q I L A D I:**

**1. Quyidagilar:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ–5072-sonli va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021 yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarori asosida joriy yilning 17-iyulidan 16-sentyabriga qadar o'tkazilgan uch bosqichdan iborat jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari bo'yicha “Ochiq byudjet” axborot portalida “ENG KO'P” ovoz olib, avtomatik tarzda g'olib sifatida tanlab olingan **6 ta** takliflarni moliyalashtirish uchun “Tashabbusli byudjet” jamg'armasidan jami **7 920.0 mln so'm** mablag' ajratilishi to'g'risidagi tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i M.Sattorovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin;

Ishchi guruh xulosalariga asosan ovoz berish bosqichiga o'tkazilgan va faol ishtirok etib, Xalq deputatlari O'zbekiston tuman Kengashining 2022 yil 9-fevraldagi VI-46-22-11-161-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan kelib chiqib, “Ochiq byudjet” axborot portalida “ENG KO'P” ovoz olib, avtomatik tarzda

g'olib sifatida tanlab olingan takliflar to'liq moliyalashtirib berilsin.

Ushbu takliflarni moliyalashtirish bo'yicha "Manzilli ro'yxat" ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda ijro uchun qabul qilinsin.

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan tuman byudjeti mablag'lari tuman hokimligi qoshida ochilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" shaxsiy g'azna hisobvarag'ida jamlangan bo'lib, ushbu mablag'larni boshqa maqsadlarga sarflanishiga yo'l qo'yilmasin.

## 2. Tasdiqlangan Manzilli ro'yxat asosida:

-Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Sattorov) tanlab olingan tadbirlarni moliyalashtirilishini ta'minlash maqsadida buyurtmachi tashkilotlariga tegishli mablag' manbasi bo'yicha (4017) "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" maxsus hisobraqamlari ochilishini;

-Tuman hokimligi hisobxonasi (X.Komilov) Jamg'arma mablag'lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablag'lar yo'naltirilishini;

-Buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag'larni loyiha-smeta hujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Xalq deputatlari tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi Ishchi guruhga ma'lumot kiritib borilishini ta'minlasin.

3. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari – matbuot kotibi (D.Jabborov) va tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Sattorov) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va "g'olib" deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshirilishi lozim ishlar bo'yicha ma'lumotlarni "Ochiq byudjet" axborot portaliga joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishini ta'minlasin.

4. Tuman byudjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag'larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga Ishchi komissiya a'zolari shaxsan javobgarligi eslatib o'tilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

**Tuman hokimi**



**Ш.Юлдашев**

Xalq deputatlari O'zbekiston tuman  
Kengashining  
2023-yil 5-oktabrdagi  
VI-73-106-11-161-K/23-son qaroriga  
1-ilova

**Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanida "Tashabbusli byudjet" loyihasining 2023 yil 2-mavsumi natijalariga asosan  
jamoatchlik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha tavsiyaviy  
MANZILLI RO'YXAT**

									(mln so'mda)
№	G'olib taklif ma'lumotlari						Amalga oshirishning aniqlangan qiymati	Xaqiqatda ajratilgan mablag'	Buyurtmachi etib belgilangan tashkilot
	Taklif ID raqami	Taklif turkumi	Qisqacha mazmuni	Tadbirlarning manzili (Joylashgan MFY nomi)	Amalga oshiriladigan tadbir turi	To'plagan ovozlari soni			
			<b>O'zbekiston tumani jami</b>		<b>xxx</b>	<b>65 351</b>	<b>7 920</b>	<b>7 920</b>	
1	03169525011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Qumbosti MFY Toshminor ko'chasi 1330 m, Shaxmatchilar ko'chasi 235 m, Yangiobod ko'chasi 1553 m, Soybo'yi ko'chasi 200 m, Jar ko'chasi 278 m jami 3596 m qismiga asfalt qoplama yotqizish ishlari.	O'zbekiston tumani Qumbosdi MFY	Qurilish-ta'mirlash	15090	1 320	1 320	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK

2	03168919011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Tinchlik MFY pastki Tovush mahallasidagi ichki yo'llar, jumladan Amur Temur ko'chasiga 1000 m, Turkiston ko'chasiga 1000 m, Mirzo Ulug'bek ko'chasiga 1000 m asfalt qoplamisini yotkizish.	O'zbekiston tumani Tinchlik MFY	Qurilish-ta'mirlash	13321	1 320	1 320	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
3	03170941011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Tinchlik MFY Tepa Tovush mahallasi Bunyodkor ko'chasiga 700 metr, Do'stlik ko'chasiga 300 metr, Soy bo'yi ko'chasiga 800 metr, jiydazor ko'chasiga 1200 metr asfalt qoplamasini yotkizish.	O'zbekiston tumani Tinchlik MFY	Qurilish-ta'mirlash	13085	1 320	1 320	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
4	031266018011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Qaynar MFY Oxunqaynar qishlog'i ichki yo'llarini asfaltlash. Umumiy 3500 metr.	O'zbekiston tumani Qaynar MFY	Qurilish-ta'mirlash	9826	1 320	1 320	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
5	031291165011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Oqmachit MFYning Tadbirkor 1200 m, Namuna 800 m, Mustaqillik 1000m ko'chalarini asfalt qilish	O'zbekiston tumani Oqmachit MFY	Qurilish-ta'mirlash	8430	1 320	1 320	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK

6	031284976011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakhasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Bekobod MFYga qarashli Mustaqillik ko'chasini 2700 metr ichki yo'llarini ta'mirlash va buning natijasida o'quvchilarni maktabga qatnov qismi ravon bo'lishi	O'zbekiston tumani Begobod MFY	Qurilish-ta'mirlash	5599	1 320	1 320	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
---	--------------	---	---	--------------------------------	---------------------	------	-------	-------	---